

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№12

2025
dekabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX
COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr, 201 sahifa.
2025-yil, dekabr*

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RASMIY RIVOJLANISH YORDAMI (OFFICIAL DEVELOPMENT ASSISTANCE, ODA) ORQALI O'ZBEKISTONDA DAVLAT MOLIYASINI BOSHQARISH (PUBLIC FINANCIAL MANAGEMENT, PFM) TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	24
<i>Pulatov Dilshod Haqberdiyevich, Ulug'ova Maftunabonu To'liqinova</i>	
INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN LEADING WHEAT-PRODUCING COUNTRIES.....	28
<i>Turayeva Gulizahro</i>	
BLOKCHEYN TIZIMLARI UCHUN XESH FUNKSIYALARNI TANLASH MEZONLARI VA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI	32
<i>Abduraximov Baxtiyor, Allanov Orif, Turdibekov Baxtiyor</i>	
RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASI ASOSIDA KICHIK KORXONALARDA ISHLAB CHIQARISHNI SAMARALI TASHKIL ETISH MODELLARI: NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA	39
<i>Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li</i>	
ISSIQLIK AKKUMULYATORINING RAZRYADLANISH JARAYONIDA SUYUQLIK QATLAMLARIDA HARORAT TAQSIMLANISHINING BIR O'LCHOVLI MODEL	43
<i>B.A. Hikmatov, M.S. Mirzayev</i>	
ISLOM MOLIYASI TAMOIYILLARI ASOSIDA YASHIL LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	49
<i>Safarova Nasiba Gulmurod qizi</i>	
ПРИМЕНЕНИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СИСТЕМ В ОБУЧЕНИИ СПЕЦИАЛИСТОВ ПО ИНФОРМАЦИОННЫМ ТЕХНОЛОГИЯМ.....	54
<i>Даниярова Улбосын Куатбаевна</i>	
YANGI TURDAGI IKKI QATLAMLI TRIKOTAJ TO'QIMALARI KO'RSATKICHLARINI KOMPLEKS BAHOLASH	58
<i>Ergasheva Rashida Abdug'aniyevna</i>	
HALQALI YIGIRISH MASHINASIDA BURAM UCHBURCHAGINING IP UZILISHIGA BOG'LIQLIGINI TADQIQI.....	62
<i>Soliyev Azizbek Kamoldinovich</i>	
НОВЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ТУРИЗМА 2030: СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ И РЕКОМЕНДАЦИИ ДЛЯ УЗБЕКИСТАНА	69
<i>Голышева Елена Вячеславовна</i>	
STRATEGIK JARAYONNING MODELLARI	76
<i>Musayeva Dilnoza Dilshatovna</i>	
МАТЕМАТИЧЕСКИЕ МОДЕЛИ ОЦЕНКИ СТОИМОСТИ КВАРТИР В МНОГОЭТАЖНЫХ ДОМАХ.....	81
<i>Уринов Адхамжон Акбарович</i>	
MATERIALLARNI MURAKKAB YASSI TRAEKTORIYALAR BO'YICHA DEFORMASIYALANTIRISHDA PLASTIK DEFORMASIYALANISH JARAYONLARI	88
<i>A.Xakimov, X.Xakimov</i>	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN LOYIHALARNI ISLOM MOLIYA INSTRUMENTLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH YO'LLARI.....	95
<i>Xaitov Shaxzod Sharipboyevich</i>	
SANOAT KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH CHORA-TADBIRLARINING KETMA KETLIGI	102
<i>Xusanova Maloxat Mengnorovna</i>	
TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA LOGISTIKA XARAJATLARI TAHLILI	107
<i>Saidova Kamola Xoshimovna</i>	



OZIQ-OVQAT SANOATINI IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNI YECHISHNING METODOLOGIK YONDASHUVLARI	111
Tleuv Niyetulla Raxmanovich	
YUQORI MUSTAHKAM KOMPOZIT ARMATURALARDAN FOYDALANILGAN TEMIRBETON KONSTRUKSIYALARINING YUK KO'TARUVCHANLIGI VA UZOQ MUDDATLI DEFORMATSIYALARINI BAHOLASH	114
Mamajanova Odina Alisher qizi	
KORXONALARDA DAROMADLILIK KO'RSATKICHLARINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	119
Farog'at Xo'jabekova, Eshankulova Nafisa Komiljon qizi	
TEMIR YO'L INFRATUZILMASIDA YASHIL IQTISODIYOT TAMOIYILLARINI QO'LLASH: CSR, ESG VA PRI ASOSIDA BARQAROR RIVOJLANISH STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISH	124
Abduraxmanova Muqaddas Toxtasinovna	
THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN OPTIMIZING MARKETING AND EDUCATIONAL PROCESSES IN HIGHER EDUCATION	128
Sadikov Shoxrux Shuhratovich	
BANK FAOLIYATIDA "YASHIL" MOLIYAVIY VOSITALARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	133
Abduraxmonov Alimardon Sodiq o'g'li	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN LOYIHALARNI ISLOM MOLIYA INSTRUMENTLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH YO'LLARI	139
Xaitov Shaxzod Sharipboyevich	
BOSHQARUV PSIXOLOGIYASIGA DOIR MUAMMOLARNI BARTARAF ETISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI	145
Aripov Oybek Abdullayevich	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA INNOVATSIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARALARI	150
Karimov Nodirbek	
УТИЛИЗАЦИЯ ПОБОЧНЫХ ПРОДУКТОВ ПЕРЕРАБОТКИ ХЛОПКА ДЛЯ СИНТЕЗА АНТИКОРРОЗИОННЫХ КОМПОЗИЦИОННЫХ ПОКРЫТИЙ.....	155
Ситмуратов Тулкинбек Сабирбаевич, Баходиров Худайберган Баходир угли	
SANOAT KORXONALARIDA MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI.....	163
Ergashev Muhibbek Aslam o'g'li	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SANOATIDA XORIJIY INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	168
Nazarova A.N.	
АВТОМАТИЗИРОВАННАЯ СИСТЕМА РАСЧЁТА ПОКАЗАТЕЛЕЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ СОТРУДНИКОВ ОРГАНИЗАЦИИ	172
Шухратов Мамуржон Шухрат угли	
BLOCKCHIAN, IOT (INTERNET OF THINGS) NING IQTISODIY SOHALARDA QO'LLANISHI	178
Avazov Ergash Xidirberdiyevich	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSİYALARINI MOLIYAVIY BOSHQARISHNING JORIY HOLATI VA EKONOMETRIK TAHLILLAR ASOSIDA KELGUSI YILLAR PROGNOZI.....	182
Ismailov Dilshod Anvarjonovich	
QISHLOQ XO'JALIGI KLASSTERLARI MOLIYAVIY HOLATINING NAZARIY JIHATLARI	190
Dildora Yuldasheva	
TURIZM SOHASIDA TRANSPORT XIZMATLARINING HOLATI	194
Xalimov Shaxboz Xalimovich	



TURIZM SOHASIDA TRANSPORT XIZMATLARINING HOLATI

Xalimov Shaxboz Xalimovich

i.f.f.d. dotsent v.b.

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

e-mail: xalimovshaxboz8545@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada turizm sohasida transport xizmatlarining mavjud holati, tarmoqlararo integratsiya jarayonlari, transport infratuzilmasining rivojlanishi hamda turistik oqimlarning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar tizimli yondashuv asosida tahlil qilingan. Transport tizimining turizm industriyasidagi strategik o'rnini, logistika jarayonlarining raqamlashtirilishi, xizmatlar sifatining oshishi hamda ekologik barqarorlik tamoyillarining ahamiyati ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, transport tarmoqlarining ijobiy va salbiy jihatlari, ularning turistik xizmatlar samaradorligi va hududlararo iqtisodiy faollikka ta'siri chuqur tahlil qilinadi. Natijalar turizm va transport tizimlari o'rtasida barqaror muvozanatni ta'minlash bo'yicha takliflarni ishlab chiqish imkonini yaratadi.

Kalit so'zlar: Turizm, transport xizmatlari, logistika, transport infratuzilmasi, turistik oqimlar, transport tizimi, barqaror turizm, raqamlashtirish, ekologik yuklama, xavfsizlik standartlari, integratsiya, xizmatlar sifati.

Abstract. This article analyzes, through a systematic approach, the current state of transport services in the tourism sector, intersectoral integration processes, the development of transport infrastructure, and the factors influencing the formation of tourist flows. The strategic role of the transport system in the tourism industry, the digitalization of logistics processes, the improvement of service quality, and the importance of environmental sustainability principles are scientifically explained. In addition, the study provides an in-depth analysis of the positive and negative aspects of transport networks and their impact on the efficiency of tourism services and interregional economic activity. The results make it possible to develop recommendations aimed at ensuring a sustainable balance between the transport and tourism systems.

Keywords: tourism, transport services, logistics, transport infrastructure, tourist flows, transport system, sustainable tourism, digitalization, environmental load, safety standards, integration, service quality.

Аннотация. В данной статье системным подходом проанализированы текущее состояние транспортных услуг в сфере туризма, процессы межотраслевой интеграции, развитие транспортной инфраструктуры, а также факторы, влияющие на формирование туристских потоков. На научной основе раскрывается стратегическая роль транспортной системы в туристской индустрии, цифровизация логистических процессов, повышение качества услуг и значимость принципов экологической устойчивости. Кроме того, глубоко изучены положительные и отрицательные стороны транспортных сетей, их влияние на эффективность туристических услуг и межрегиональную экономическую активность. Полученные результаты позволяют разработать предложения по обеспечению устойчивого баланса между транспортной и туристической системами.

Ключевые слова: туризм, транспортные услуги, логистика, транспортная инфраструктура, туристские потоки, транспортная система, устойчивый туризм, цифровизация, экологическая нагрузка, стандарты безопасности, интеграция, качество услуг.



KIRISH

Turizm sanoati rivojlanishining barqarorligi transport infratuzilmasining sifat darajasi va tashish xizmatlarining funksional imkoniyatlari bilan bevosita bog'liq sanaladi. Transport tizimi turistlarning geografik makonlar o'rtasida erkin harakatlanishini ta'minlaydigan asosiy mexanizm bo'lib, uning samaradorligi turistik oqimlarning hajmi, hududlararo integratsiya darajasi, turistik mahsulotning jozibadorligi va xizmatlar majmuasining sifat ko'rsatkichlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy sharoitda transport xizmatlarining turizm sektori bilan uyg'unlashuvi strategik ahamiyat kasb etib, logistika jarayonlarining raqamlashtirilishi, tashish standartlarining optimallashtirilishi va xizmat ko'rsatish madaniyatining yuksalishi turizm industriyasining raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardan biriga aylanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida turizm infratuzilmasini yaxshilash va xorijiy turistlar oqimini yanada oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"[1]gi Farmonida Mamlakatimiz hududlarida yangi turizm industriyasi obyektlarini ko'paytirish orqali qulay sayohat qilish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, jahon bozorida milliy turizm mahsulotlarini faol targ'ib qilishning zamonaviy mexanizmlarini joriy qilish, ichki turizm imkoniyatlarini yanada kengaytirish, transport logistikasidagi mavjud muammolarni hal etish, shuningdek, sohaga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish maqsad qilingan. Bundan tashqari, turizm sohasida transport xizmatlarini yaxshilash maqsadida dvigatel hajmi 2,4 litrdan kam bo'lmagan yuqori o'tish qobiliyatiga ega transport vositalari import qilinayotganda bojxona boji va utilizatsiya yig'imini amaldagi stavkaning 25 foizi miqdorida 3 yil muddatga bo'lib-bo'lib to'lashga ruxsat etilga.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ushbu mavzuga oid ko'plab xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqotlari tahlil qilindi. Xususan, Polina Kartsan "Transport Communication and Organization of Transport Services in the Tourism Sector"[2] nomli maqolasida "...Rossiya Federatsiyasining turizm va transport kompleksi past raqobatbardoshlik va nisbatan sust boshqaruv tizimi bilan xarakterlanadi. U asosan chiqish turizmi va yuqori daromadga ega aholiga yo'naltirilgan bo'lib, bu esa mamlakatning tashqi iqtisodiy balansida salbiy saldo oshishiga sabab bo'ladi. Mavjud vaziyatning asosiy sabablaridan biri turistlarni tashishga oid tashkiliy-iqtisodiy boshqaruv mexanizmining yetarli darajada samarali emasligi va bu yo'nalishda faoliyatlarining real muvofiqlashtirilmaganligidir. Bu kamchiliklar turistik tashuvlar uchun yuqori tariflar, turistik yo'nalishlardagi xavfsizlik darajasining pastligi, transport xizmatlarining sifati yetarli emasligida namoyon bo'ladi. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun turistik tashuvlarni tashkil etishda tashkiliy va iqtisodiy mexanizmni takomillashtirishga qaratilgan yangi yondashuvlar zarur.", kabi fikrlarni bildirgan.

L.Gui va T.D.David "Critical aspects of the tourism-transport relationship" nomli maqolasida transport va turizm o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik keng turizm tizimining eng muhim tarkibiy munosabatlarini yoritib bergan. "...odamlar turli masofalarga, turli vositalar orqali va turli maqsadlarda sayohat qiladilar; aynan transport ta'minoti ushbu harakatning markazida turadi.

Transportning turizm uchun ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

a) u turistlarning kelib chiqish joyidan boriladigan manzilga ko'chishini ta'minlaydi;

b) manzil hududi ichida harakatlanish vositasi bo'lib xizmat qiladi, bu esa sayyohlarning hudud bo'ylab kengroq tarqalishiga va natijada, odatda imkon bo'lmagan hududlarga ham tashrif buyurishlariga zamin yaratadi."[3], degan fikrni ilgari surgan.

I.Diana, I.Mariya va P.Eva-Kristina "The Environment, Tourist Transport and the Sustainable Development of Tourism"[4] nomli maqolasida tabiiy muhit, turistik transport va barqaror turizm rivojlanishi o'rtasidagi murakkab o'zaro bog'liqliklar ilmiy asosda yoritilgan. Tadqiqotda tabiiy resurslarning turizm faoliyatiga ta'siri hamda turizmning atrof-muhitga ko'rsatadigan aks ta'sirini statistik va matematik metodlar yordamida baholashga e'tibor qaratilib, tabiiy hududlar, xususan, milliy va tabiiy bog'larda kuzatilayotgan ijobiy ekologik o'zgarishlarning sayyohlar, ayniqsa xorijiy mehmonlar oqimini oshirishdagi o'rta darajadagi ta'siri aniqlangan. Mualliflar Ruminiyada tabiiy va qo'riqlanadigan hududlarni yanada faol targ'ib qilish turizm oqimini kengaytirish va iqtisodiy samaradorlikni kuchaytirishning muhim yo'nalishi ekanini ta'kidlaydi.

B.Sh.Safarov, N.E.Ibadullayev, M.I.Daminov va A.A.Karimovlarning "Turizmda transport xizmatlari"[5] nomli o'quv qo'llanmasida transport sohasining jadal sur'atlarda rivojlanishi, bevosita turizm sohasining barqaror o'sishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatishi yoritib berilgan.

Tuxliyev, R.Hayitboyev, B.Sh.Safarov va G.R.Tursunovalarning "Turizm asoslari"[6] nomli darsligida turizm sohasida transport tizimlarining barcha turlari yagona maqsadni-tashish xizmatlarini ko'rsatishda sayohatchilarning ehtiyojlarini to'laqonli qondirishni amalga oshirishga qaratilganligi yoritib berilgan.

"Turistlarga transport xizmatlarini ko'rsatish, turistlarni va ularning yuklarini bir joydan ikkinchi joyga mumkin qadar tez va qulay sharoitlarda tashish uchun mo'ljallangan xizmatlar majmui"[6], deb ta'riflanadi.

Olimlarning fikricha transport xizmatlari ko'rsatish qonun hujjatlari bilan mustahkamlangan huquqiy bazaga asoslanadi. Ushbu hujjatlar: 1) turli xalqaro transport tashkilotlari tomonidan; 2) mamlakatlarning milliy qonunchiligi doirasida; 3) yuk va yo'lovchi tashuvchilarning ichki qoidalarida ishlab chiqilgan bo'ladi. Xalqaro turizmni amalga oshirishda transport xizmatlari ko'rsatishning turli jihatlariga alohida diqqat-e'tibor berish lozim. Sayohatlar sohasida xalqaro hamkorlik chegaralarining kengayishi bojxona, chegara va sanitariya nazoratini amalga oshirish me'yorlari va qoidalarini muttasil takomillashtirib borishni taqozo etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot transport xizmatlari va turizm o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni kompleks baholashga yo'naltirildi. Metodologiya analitik-tahliliy yondashuv, solishtirma tahlil, me'yoriy-huquqiy tahlil, ekologik baholash yondashuvi va ilmiy adabiyotlar tahlili yondashuvlarga asoslandi.

Metodologiya transport xizmatlarining turizm sektoriga kompleks ta'sirini amaliy va nazariy jihatdan asoslash imkonini berdi.

Tahlil va natijalar Transport har qanday turistik mahsulot tarkibida asosiy o'rin tutadi, sayohat va turistik safarlarning ajralmas bosqichi hisoblanadi. Transport turining to'g'ri tanlanishi safarning samaradorligiga va belgilangan maqsadga erishishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Transport sohasi turizm faoliyatini shakllantirishda va turizmning yuqori daromadli iqtisodiy tarmoq sifatida rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

Jamiyatda ilmiy-texnik taraqqiyot natijasida insonni qisqa vaqt ichida dunyoning istalgan nuqtasiga yetkazib qo'yishga qodir bo'lgan transport vositalari (yuqori tezlikdagi poyezdlar, yo'ltanlamas avtomobillar, chuqur suv transporti) yaratildi, shuningdek, transport xizmatlari sohasida yangi texnologiyalar joriy qilindi. Mijozlar uchun raqobat turli transport tuzilmalari o'rtasida hamda har bir transport turi ichida tashuvchilar o'rtasida kuchayib, yo'lovchilarga ko'rsatiladigan xizmatni takomillashtirish jarayoniga katta turtki berdi. Xizmat darajasining o'sishi harakat tarkibining zamonaviy texnik jihozlanishi, qulay sayohat sharoitlarining tashkil etilishi, yo'lovchilarning yo'l davomida dam olishini ta'minlash, ularga individual ovqatlanish xizmatlarining ko'rsatilishi, transport kompaniyalarining doimiy mijozlari uchun sodiqlik dasturlarini rivojlantirishda namoyon bo'lmoqda.

Turizm sohasida transport xizmatlarining holati bir qator tizimli omillar bilan belgilanadi. Avvalo, xalqaro va ichki transport tarmoqlarining integratsiya darajasi, logistika infratuzilmasining rivojlanganlik holati, yo'lovchilarni tashish jarayonida qo'llanilayotgan texnologik yechimlar, xizmatlarning diversifikatsiyalash darajasi hamda xavfsizlik standartlarining qo'llanishi ushbu sohaning umumiy sifat ko'rsatkichlarini belgilaydi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar asosida yo'lovchi oqimlarini monitoring qilish, onlayn chiptalar tizimi, avtomatlashtirilgan marshrut boshqaruvi va ekologik transport vositalaridan foydalanish turizmning barqaror rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Transport xizmatlarining takomillashuvi turistlarga yo'l bosish vaqtini qisqartirish, qulaylik darajasini oshirish, marshrutlarning moslashuvchanligini ta'minlash va turistik hududlarga kirish imkoniyatlarini kengaytirish orqali turizm industriyasining iqtisodiy samaradorligini oshiradi.

Transport tizimining samarali faoliyati barqaror turizm konsepsiyasining amaliyotda to'liq ro'yobga chiqishida muhim omildir. Xavfsiz, ekologik toza va energiya tejamkor transport vositalaridan foydalanish atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytiradi, turistik hududlarning ekologik barqarorligini ta'minlaydi hamda mahalliy infratuzilmaning samarali ekspluatatsiyasiga imkon yaratadi. Shuningdek, transport xizmatlarining turizm bilan integratsiyasi hududlar iqtisodiyotini rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish, logistika tarmoqlarini modernizatsiya qilish va turistik mahsulotning global bozorlar uchun ochiqqligini ta'minlashda asosiy omil sifatida maydonga chiqadi.


1-jadval. Transportning turizm sohasiga ta'siri¹

Ijroiy ta'sirlar	Salbiy ta'sirlar
Turistik hududlarga kirish imkoniyatini kengaytiradi.	Transport oqimlari ortishi ekologik yuklamani kuchaytiradi.
Sayyohlar uchun qulaylik va harakatlanish tezligini ta'minlaydi.	Yo'lovchi oqimi ko'payishi infratuzilmaga ortiqcha bosim yuklaydi.
Turistik oqimlar hajmini oshiradi va hududlarning iqtisodiy faolligini kuchaytiradi.	Transport shovqini va tirbandliklar turistik muhit sifatini pasayishiga olib keladi.
Hududlararo logistika integratsiyasini mustahkamlaydi.	Transport vositalarining eskirganligi xizmat sifatini pasaytirishi mumkin.
Turizm mahsulotining jozibadorligini oshiruvchi qo'shimcha xizmatlar yaratadi.	Transport xavfsizligi bilan bog'liq tavakkalchiliklar turizmga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

1 Muallif ishlanmasi




Jadvaldan ko'rinadiki, transport tizimi turizm sohasining rivojlanishi uchun strategik ahamiyatga ega bo'lib, turistik oqimlarni kengaytirish, hududlarning o'zaro bog'liqligini kuchaytirish va xizmatlar sifatini yaxshilash orqali iqtisodiy faollikning oshishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, transportning intensivlashuvi ekologik yuklama ortishi, infratuzilma quvvatining qisqarishi va transport xavfsizligiga oid cheklovlar shaklida turizm sektoriga ma'lum salbiy ta'sirlarni ham yuzaga keltiradi. Shuning uchun turizm va transport tizimlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash, ekologik barqaror transport vositalaridan foydalanish, infratuzilmani tizimli modernizatsiya qilish va xizmatlar sifati ustuvorligini ta'minlash barqaror turizm rivojlanishining muhim sharti bo'lib qoladi.



1-rasm. Barcha transport turlari bo'yicha yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasining hajmi, o'sishi (kamayishi) (yanvar-dekabr)


"2024 yilning yanvar-dekabr oylarida havo transporti (aviatransport)da kelgan sayyohlar 1 378,9 ming kishini (17,3 %), temir yo'l orqali kelganlar – 97,8 ming kishini (1,2 %), avtomobil transportida kelganlar – 166,4 ming kishini (2,1 %) tashkil etgan. Sayyohlarning eng ko'p qismi, ya'ni 6 314,9 ming nafari (79,4 %) chegarani piyoda kesib o'tgan"[7].



2-rasm. Avtomobil transportida yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasi hajmi, o'sishi (kamayishi) (yanvar-dekabr)


"2024-yilning yanvar-dekabr oylari yakuniga ko'ra avtomobil transportida jami 6 582,6 mln yo'lovchi tashilib, 2023-yilga nisbatan o'sish sur'ati 104,6 % ni tashkil etdi. 2023-yilda tashilgan yo'lovchilar soni 6 292,7 mln yo'lovchini tashkil etib, 2022-yilga nisbatan o'sish sur'ati 103,3 % dan iborat bo'lgan. 2022-yilda 103,0 %

ni, 2021-yilda 112,7 % ni tashkil etdi. 2020 yil esa ushbu ko'rsatkich bo'yicha 11,3 % ga kamayish qayd etildi. 2024-yilning yanvar-dekabr oylari yakuniga ko'ra, avtomobil transportining yo'lovchi aylanmasi hajmi 139 531,5 mln yo'lovchi-km (2023-yilga nisbatan 103,7 %), 2023-yilda esa 134 504,7 mln yo'lovchi-km (102,7 %), 2022-yilda 131 012,4 mln yo'lovchi-km (102,5 %), 2021-yilda 127 871,6 mln yo'lovchi-km (113,0 %), 2020-yilda 113 198,2 mln yo'lovchi-km (8,8 % ga kamayish) qayd etildi"[8].



3-rasm. Temir yo'l transportida jo'natilgan yo'lovchilar va yo'lovchi aylanmasi hajmi, o'sishi (kamayishi) (yanvar-dekabr, % da)

"2024-yilning yanvar-dekabr oylarida temir yo'l transportida jami 9,8 mln yo'lovchi jo'natilgan bo'lib, 2023-yilga nisbatan 1,8 % o'sishi qayd etildi. 2020-yilda pandemiya sababli yo'lovchilar sonining keskin pasayishi qayd etilgan (73,1 % ga). 2024-yilning yanvar-dekabr oylari davomida temir yo'l transporti yo'lovchi aylanmasi hajmi 4 077,9 mln yo'lovchi-km (2023 yilga nisbatan o'sish sur'ati 104,5 %), 2023-yilda – 3 903,7 mln yo'lovchi-km (o'sish sur'ati 110,0 %), 2022-yilda 3 549,4 mln yo'lovchi-km (113,4 %), 2021-yilda 3 130,2 mln yo'lovchi-km (174,4 %), 2020-yilda – 1 794,9 mln yo'lovchi-km (59,1 % ga kamayish)ni tashkil etgan"[8].



4-rasm. Havo transportida jo'natilgan yo'lovchilar va yo'lovchi aylanmasining hajmi, o'sishi (kamayishi) (yanvar-dekabr)

"2024-yilning yanvar-dekabr oylarida havo transporti orqali jami 6,0 mln yo'lovchi jo'natilgan bo'lib, 2023-yilga nisbatan 14,9 % ga o'sish qayd etildi. 2023-yilda umumiy jo'natilgan yo'lovchilar soni 5,3 mln yo'lovchini tashkil etib, 2022-yilga nisbatan 1,3 marta o'sish qayd etildi. 2022-yilda 4,1 mln yo'lovchi (1,4 marta o'sish),



2021-yilda – 3,0 mln yo'lovchi (3,4 marta o'sish), aksincha 2020-yilda esa – 0,9 mln yo'lovchi (73,2 % ga kamayish) qayd etildi. 2024-yilning yanvar-dekabr oylari yakuniga ko'ra havo transportida yo'lovchi aylanmasi hajmi 17 021,9 mln yo'lovchi-km (2023 yilga nisbatan 123,4 %), 2023-yilda 13 792,4 mln yo'lovchi-km (1,3 marta o'sish), 2022-yilda 10 905,4 mln yo'lovchikm (2,1 marta o'sish), 2021-yilda 5 258,8 mln yo'lovchi-km (1,7 marta o'sish)ni tashkil etdi. 2020 yilda esa ushbu ko'rsatkich 3 013,8 mln yo'lovchi-km (72,6 % ga kamayish) qayd etildi"[8].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari turizm sohasida transport xizmatlarining samaradorligi turistik mahsulotning jozibadorligi, hududlararo integratsiya va logistika tizimining rivojlanishiga bevosita ta'sir etishini ko'rsatadi. Transport tarmoqlarining modernizatsiyalashuvi, xizmat ko'rsatish standartlarining takomillashuvi va raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi turizm industriyasining raqobatbardoshligini oshiruvchi asosiy omil sifatida shakllangan. Shu bilan birga, transport tizimida mavjud cheklovlar — ekologik yuklama, tirbandliklar, eskirgan transport parki va xavfsizlik standartlarining yetarli emasligi — turistik xizmatlar sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi qayd etildi. Shuning uchun transport va turizm tizimlarining uyg'un rivojlanishi barqaror turizm siyosatining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib qoladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi takliflar ishlab chiqilgan:

Birinchidan, transport infratuzilmasini bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish, ayniqsa turistik hududlarda yo'lovchi tashish quvvatini oshirish bo'yicha kompleks dasturlarni kengaytirish;

Ikkinchidan, ekologik toza transport vositalaridan foydalanishni rag'batlantirish, shaharlar va turistik markazlar o'rtasida "yashil transport yo'laklari"ni joriy etish;

Uchinchidan, turistik transport xizmatlarini raqamlashtirish darajasini oshirish, bitta integratsiyalashgan platformada chipta sotish, marshrut rejalashtirish va monitoring tizimlarini yo'lga qo'yish;

To'rtinchidan, transport xizmatlari sifati bo'yicha yagona standartlarni ishlab chiqish, xizmat ko'rsatish madaniyatini oshirish hamda malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish;

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida turizm infratuzilmasini yaxshilash va xorijiy turistlar oqimini yanada oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Farmoni, 18.07.2024-yildagi PF-102-son <https://lex.uz/ru/docs/-7031233?ONDATE=23.07.2024%2000>
2. Polina Kartsan "Transport Communication and Organization of Transport Services in the Tourism Sector" Transportation Research Procedia, 2022 <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2352146522000369>
3. Gui Lohmann va David Timothy Duval "Critical aspects of the tourism-transport relationship" 2011 https://www.researchgate.net/profile/Gui_Lohmann/publication/232608071_Critical_Aspects_of_the_Tourism-Transport_Relationship/links/00b49514e18af7811d000000/Critical-Aspects-of-the-Tourism-Transport-Relationship
4. Ioncica, Diana, Ioncica, Mariya va Petresku, Eva-Kristina "The Environment, Tourist Transport and the Sustainable Development of Tourism" 2016 <https://www.econstor.eu/handle/10419/169044>
5. Safarov B.Sh., Ibadullayev N.E., Daminov M.I., Karimov A.A. "Turizmda transport xizmatlari". -T.: «Fan va texnologiya», 2019, 252 bet. ISBN 978-9943-5836-1-0 http://kitob.sies.uz/frontend/web/kitob/kitob_00600015225a53a.pdf
6. Tuxliyev I.S., Hayitboyev R., Safarov B.Sh., Tursunova G.R.. "Turizm asoslari". Darslik. O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta Maxsus Ta'lim Vazirligi. --Toshkent: Fan va texnologiya, 2014, -332 bet. ISBN-978-9943-975-50-7 http://kitob.sies.uz/frontend/web/kitob/kitob_006244632113dd0.pdf
7. O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo'mitasi axborotnoma 2024 https://stat.uz/uz/?preview=1&option=com_dropfiles&format=&task=frontfile.download&catid=469&id=3695&Itemid=1000000000000
8. O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo'mitasi axborotnoma 2024 https://stat.uz/uz/?preview=1&option=com_dropfiles&format=&task=frontfile.download&catid=469&id=3684&Itemid=1000000000000

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100